ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

KAMBAG'ALLIK QISQARTIRISHDA O'ZBEKSITONDA HAMDA XORIJIY DAVLATLARDA QO'LLANILAYOTGAN CHORA-TADBIRLAR

Raxmatullayev Murodbek Maqsud o'g'li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 3-kurs talabasi
raxmatullayemurodbek545@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada kambag'allik tushunchasi, uni bartaraf etishning O'zbekistonda qo'llanilayotgan hamda xorijiy davlatlar foydalanilgan va foydalanilayotgan usullari ko'rib chiqiladi. Dunyoning turli davlatlari, jumladan Braziliya, Pokiston, AQSh tajribalaridan misollar keltirilgan. Maqolada har bir davlatning kambag'allikka qarshi kurashish usullari, jumladan ijtimoiy himoya tizimi, kasbiy tayyorgarlik, texnologik rivojlanish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash kabi yo'nalishlar yoritiladi.

Kalit so'zlar: Kambag'allik tushunchasi, kambag'allikni qisqartirish, xorijiy tajribalar, ijtimoiy himoya, iqtisodiy o'sish, O'zbekiston iqtisodiyoti, barqaror rivojlanish.

Kambag'allik tushunchasi juda ham keng tushunchasi hisoblanadi. Kambag'allik deb iqtisodchilar hamma oddiy insonlar tushunadigan narsani nazarda tutishadi, ya'ni moliyaviy resurslar kamligi, ya'ni odamlar yoki jamiyatlarning bazaviy xohish-istaklarini qondiradigan darajada puli va boshqa iqtisodiy resurslari yo'qligi hisoblanadi.

Jahon banki tashkiloti ham kambag`allikka quyidagicha ta'rif beradi: "Kambag`allik bu to`yib ovqatlanolmaslik, boshpananing etishmasligi, kasal bo'lib, shifokorga murojaat qila olmaslik, maktabga bormaslik va o'qishni bilmaslikdir. Kambag`allik - bu ish yo'qligi, kelajak uchun qo'rquv, bir vaqtning o'zida faqat bir kungina yashash. Ko'pincha kambag`allik - bu odamlar qochishni istaydigan vaziyatdir" deb ta`rif berib o'tgan.[1]

Kambag'allikni o'lchashning butun dunyoda qabul qilingan va hamma uchun tegishli metodlari bor. **Birinchi o'lchov** bu qanchadir vaqtdan buyon Jahon banki kabi tashkilotlar foydalanadigan, insonlar qancha kaloriyani iste'mol qilishi bo'yicha o'lchov hisoblanadi. Ya'ni bir odam normal faoliyat olib borishi uchun kuniga 2200 kaloriya iste'mol qilishi kerak deb tasavvur qilsak, o'sha kaloriyaning o'sha mamlakatdagi narxi hisoblanadi. Odamlarda bu narx atrofida moliyaviy resurslari bo'lmasa, ular kambag'al hisoblanishadi.

Ikkinchi turdagi o'lchov ham bor: unda odamda pul bo'lmasa ham, kaloriyalarni o'zining chorvasidan, tomorqasidan yetishtirish imkoniyati bormi, degan savol qo'yiladi va shunga qarab kambag'allik belgilanadi. Ya'ni kambag'allikning eng past darajasi bu insonda normal faoliyat olib borish uchun yetarli kaloriyalar mavjud yoki yo'qligi hisoblanadi.

Kambag'allik bugungi kunda O'zbekiston oldida turgan eng dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Mamlakat 1991-yilda o'z mustaqilligiga erishganidan keyin ajoyib yutuqlarga erishgan bo'lsa-da, aholining ancha qismi, ayniqsa, qishloq joylarda iqtiqomat qiluvchi aholi iqtisodiy qiyinchiliklarni boshdan kechirishda davom etmoqda. Kambag'allik

[1] 2000-yil, BMT Bosh assambleyasi,"Mingyillik rivojlanish maqsadlari deklaratsiyasi"

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

muammosi murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, tarixiy, siyosiy va iqtisodiy o‘zgaruvchilar ta’sirida shakllanadi. O‘zbekiston globallashuv va rivojlanishning ulkan kun tartibiga kirishar ekan, kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha chora-tadbirlar uning siyosatining ustuvor yo‘nalishlarida asosiy o‘ringa chiqdi. Ushbu chora-tadbirlar, ularni amalga oshirish va samaradorligini sinchkovlik bilan o‘rganish mamlakatning kengroq rivojlanish trayektoriyasini tanqidiy tushunish imkonini beradi.

O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha olib borilayotgan sa’y-harakatlarning asosiy tarkibiy qismi aholi bandligini ta’minlashdir.

Aholini kambag‘allikdan chiqarishda samarali bandlikning ahamiyatini e’tirof etgan holda, hukumat infratuzilmani rivojlantirish, sanoatni diversifikatsiya qilish, kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash orqali yangi ish o‘rinlari yaratishga ustuvor ahamiyat berdi. Kasbiy ta’lim va malaka oshirishga qaratilgan dasturlar mehnat resurslarini iqtisodiyot talablariga moslashtirish uchun yaratilgan. Maxsus iqtisodiy zonalar va qishloqlarni rivojlantirish dasturlari shahar markazlaridan tashqarida bandlik imkoniyatlarini ko’paytirish va shu orqali mintaqaviy tafovutlarni bartaraf etishda muhim rol o‘ynadi.

Kambag’allik darajasi 2020-2024-yillar oralig’idagi tizimli chora-tadbirlar o’zining samarasini berib, uch milliondan ziyod vatandoshimizning yashash darajasi yaxshilandi. Kambag’allik darajasi 17 foizdan 11 foizga tushdi. Jahon banki 2024-yil may oyida e’lon qilgan “O‘zbekistonning kambag‘allikni qisqartirish yo‘li: xalqaro taqqoslash dasturi xulosalari” hisobotida O‘zbekiston kambag’allikni qisqartirishda eng yuqori natijaga erishgan mamlakatlardan biri ekani qayd etilgani ham bejiz emas. Jahon banki ekspertlari o‘rganishlar natijasida mamlakatimizda 2021-2023-yillarda qishloq joylarida 1,2 million aholi, shaharlarda esa 400 ming kishi kambag‘allikdan chiqarilganini qayd etdi.[2]

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori 11.03.2025-yildagi 158-son “**Kambag‘allikni qisqartirish davlat maqsadli jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”** ham yurtimizda kambag’allikni qisqartirish uchun bajarilayotgan ishlarga yaqqol misol. Vazirlar Mahkamasi qarori bilan “Kambag‘allikni qisqartirish davlat maqsadli jamg‘armasi**”** rasmiy ravishda tashkil etildi. Bu jamg‘arma kambag‘allikni kamaytirish bo‘yicha yangi institut bo‘lib xizmat qiladi. 2025-yil 1-oktyabrdan boshlab jamg‘arma mablag‘lari asosida fuqarolarga beriladigan naqd pul yordamlar, subsidiya, grant va ssudalar ijtimoiy karta orqali bosqichma-bosqich tarqatilish boshlandi.

Bu tartib yordamlarning aniq va samarali yetib borishini ta’minlashga qaratilgan.[3]

Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko’ra, 2018-yilda O‘zbekistonda 14 mingga yaqin o’quvchi xususiy maktabga borardi. 2024-yilga kelib, ularning soni 112 mingdan oshgan. Xususiy maktab o‘quvchilari o‘tgan o‘quv yiliga nisbatan 75 foizga oshgan. Bu ma’lum to‘lov evaziga sifatli

[2] O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi

[3] Vazirlar mahkamasining 11.03.2025-yildagi 158-son qarori

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

ta'limni kafolatlovchi maktablarga aholining talabi, shunga yarasha moddiy imkoniyati ham oshib borayotganini dalillaydi.

Xorij mamlakatlar tajribalar ham kambag'allikni qisqartirishda katta ahamiyatga ega, sababi ular boshqa davlatlarda amalga oshirilgan muvaffaqiyatli strategiyalar va siyosatlarning samaradorligini ko'rsatib beradi. Xorij tajribalari mamlakatlarga o'z sharoitlariga moslab o'z yondoshuvlarini yaratish hamda joriy qilishga yordam beradi. Xorij ko'nikmalarining ahamiyati orqali samarali siyosatlarni o'rganish va tatbiq etish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlarga moslashish shular jumlasidandir. Xorij mamlakatlarida amalga oshirilgan kambag'allikni qisqartirish siyosatlari, o'z muvaffaqiyatlari va kamchiliklari bilan tanishib, ularning eng yaxshi tajribalarini o'rganish va o'z mamlakatida tatbiq etish imkonini beradi. Resurslarni tejamkor ishlatish va samaradorlik bilan xorijiy tajribalar yordamida kambag'allikni qisqartirish uchun zarur bo'lgan resurslarni samarali ishlatish va ularni to'g'ri taqsimlash haqida o'rganish mumkin. Kambag'allikni qisqartirish global miqyosda ham ustuvor masala sifatida ko'riladi.Misol sifatida, Braziliyadagi Bolsa Família, Pokistondagi Benazir Income Support Programme (BISP), AQShdagi Opportunity NYC kabi ijtimoiy yordam dasturlari shular jumlasidandir.

Braziliyadagi Bolsa Família dasturidan oilalar foydalana olishi uchun ya'ni yordam puli olish uchun avvalo o'sha oila farzandlari maktabga qatnashi shart edi.

6-15 yoshdagi bolalar maktabga kamida 85 %, 16-17 yoshdagi o'smirlar esa 75 % davomati bilan qatnashi shart bo'lgan. Bundan tashqari 0-7 yoshdagi bolalar hamda homilador ayollar muntazam emlash jadvaliga rioya qilishi shart bo'lgan. Bu nafaqat ehtiyojmand oilalarni kambag'allikdan chiqarish, balki bolalarning bilimi, sog'lig'i va keljakdagi mehnat salohiyatini oshirish orqali kamaytirish maqsad qilingan.Ushbu dastur o'z natijasini ko'rsatib, kambag'allik darajasi 23.9 foizdan 9.6 foizga tushgan. 2023-yilning o'zida deyarli 3 million odam kambag'allikdan chiqqan.[4]

Tajribalar manbai	O'zbekistonda qo'llanilishi	Natijasi
Jahon Banki	Milliy kambag'allikni baholash va stratejik rejalar	Kambag'allik darajasi 2021–2023 yillarda 17% dan 11% gacha pasaydi.
BMT Taraqqiyot dasturi(UNDP)	Ijtimoiy va inklyuziv dasturlarni integratsiya	Ijtimoiy yordam va tadbirkorlik qo'llab-quvvatladi
Osiyo Taraqqiyot Banki (ADB)	Investitsiyalar hamda forumlar orqali tajriba almashish	Bandlik va iqtisodiy inklyuziya yo'nalishlari kuchaydi

[4] Brasil reports (october 3 , 2023)

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-12

Xitoy	Modellarni o‘rganish va iqtisodiy o‘sish strategiyalari	Strategik yondashuvlarni tahlil qilish

Manba: The World Bank , UNDP Uzbekistan, Asian Development Bank , Prezident matbuot xizmati.

Xulosa qilib aytganda, kambag’allikni qisqartirish – har bir davlat uchun ijtimoiy adolat va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashning eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Kambag‘allikni qisqartirish va aholini ijtimoiy himoyalash davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirish, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlarini yaxshilash zarur. Xususan, “Kambag‘allikni qisqartirish davlat maqsadli jamg‘armasi” tashkil etilishi orqali yordamlarni aniq va maqsadli yetkazish, kambag‘al oilalarni bandlik va tadbirkorlikka jalb etish, hamda ijtimoiy himoya mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha yangi institut shakllantirildi. Milliy statistika ham kambag‘allik darajasining so‘nggi yillarda kamayayotganini ko‘rsatmoqda, bu esa mamlakat strategiyalarining natijadorligini tasdiqlaydi.

Xorijiy davlatlar tajribasi esa shuni ko‘rsatadiki, kambag’allikni qisqartirishda turli yondashuvlar samarali bo‘lishi mumkin. Ushbu modellar O‘zbekiston uchun ham ijtimoiy yordam samaradorligini oshirishda muhim dalillar bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Xalqaro tajribalardan kelib chiqadigan asosiy saboq shundaki, kambag’allikni qisqartirish kompleks yondashuvni talab qiladi: nafaqat pul yordamlarini taqdim etish, balki ta’lim, sog‘liqni saqlash, bandlik va tadbirkorlik yo‘nalishlarini tizimli ravishda qo‘llab-quvvatlash lozim. O‘zbekistonning amaliy tajribasi ham shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy ijtimoiy siyosat mexanizmlari, xalqaro tajriba asosida shakllantirilgan strategiyalar va samarali monitoring tizimi kambag‘allikni barqaror ravishda kamaytirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori 11.03.2025-yildagi 158-son “Kambag‘allikni qisqartirish davlat maqsadli jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati
3. O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi O‘zXDP fraksiyasi rahbari Ulug’bek Inoyatovning nutqi.
4. Julia Dayton, Aziz Khan, Helena Ribe, Marc Schneider. “Country Policies for Poverty Reduction A Review of Poverty Assessments”
5. 2000-yil, BMT Bosh assambleyasi,”Mingyillik rivojlanish maqsadlari deklaratsiyasi”
6. Brazil Reports(https://brazilreports.com)